

Boshqarmaning asosiy vazifa va funksiyalari

1. vazirlik faoliyatini tashkil qilish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalda tatbiq etishda qatnashish;

vazirlik tizimida rejalashtirish tadbirlarini muvofiqlashtirish va tashkil etish;

vazirlik markaziy apparati, hududiy va tarkibiy tuzilmalari xizmat faoliyatini o'rganish, tahlil qilish hamda takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish;

vazirlik Shtabi tarkibida Tashkiliy-tezkor boshqarma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish va qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlarini baholash;

vazirlik hay'at yig'ilishlarini tayyorlash va o'tkazishni tashkil qilish hamda hay'at yig'ilishlari qarorlari ijrosini tayyorlashda qatnashish;

vazirlik rahbariyati ko'rsatmasiga asosan boshqa vazifalarni bajarish.

2. a) vazirlik faoliyatini tashkil qilish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalda tatbiq etishda qatnashish sohasida:

vazirlik faoliyatini takomillashtirish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi;

vazirlik tuzilmalari va organlari faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari hamda baholash mezonlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

b) vazirlik tizimida rejalashtirish tadbirlarini muvofiqlashtirish va tashkil etish sohasida:

FVDT asosiy tadbirlar rejasiga muvofiq vazirlik faoliyatiga taalluqli tadbirlarni kiritgan holda Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy tadbirlar rejasini ishlab chiqadi va tasdiqlangandan so'ng uning ijrosi ustidan nazorat olib boradi;

vazirlik bosh boshqarmalari, mustaqil boshqarma, bo'lim, xizmat, markazlari, hududiy va tarkibiy tuzilmalari hamda bo'ysunuvidagi tashkilotlar tomonidan asosiy tadbirlar rejalarning ishlab chiqilishini nazorat qiladi;

rejalashtirishni tashkil qilish sohasida vazirlik tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda metodik ta'minlashni amalga oshiradi;

rejalashtirish va tuzilmalar faoliyatini tahlil qilish sohasida hududiy Tezkor bo'limlari shaxsiy tarkibining bilim va malakasini oshirishga qaratilgan o'quv-uslubiy yig'inlarni rejalashtiradi va tashkil qiladi;

v) vazirlik markaziy apparati, hududiy va tarkibiy tuzilmalari xizmat faoliyatini o'rganish, tahlil qilish hamda takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish sohasida:

vazirlik Markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalari faoliyati samaradorligi tahlilini tashkil etadi;

vazirlik organlari va tuzilmalari faoliyatidagi dolzarb muammolar muhokamasi hamda ularning yechimi bo'yicha qarorlarni tayyorlashda qatnashadi;

vazirlik tizimida tezkor rejalashtirish, tuzilmalar faoliyatini baholash sohasida tizimli muammolarni hal etish bo'yicha ekspertlarni jalb qilgan holda seminarlar, muhokamalar va amaliy tadbirlarni tashkil qiladi;

boshqarma faoliyati yo'nalishida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganib, ularning ijobiy jihatlarini vazirlik tizimida qo'llash yuzasidan asoslangan takliflar kiritadi;

g) vazirlik Shtabi tarkibida Tashkiliy-tezkor boshqarma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish va qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlarini baholash sohasida;

harbiylashtirilgan tuzilmalar bilan hamkorlikdagi rejalarning ishlab chiqilishini tashkil etadi;

hamkorlikdagi rejalarda vazirlik Markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari va tarkibiy tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

vazirlik boshqaruv organlari, kuch va vositalarining hamkorlikdagi rejalarda belgilangan tadbirlarni bajarishga tayyorgarlik holatini nazorat qiladi va tahlilini yuritadi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman (shahar)lar miqyosida qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlarini amaldagi talablar asosida o‘tkazish rejalariga takliflar kiritadi;

qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlari yakunlari bo‘yicha samaradorligini baholaydi hamda bu boradagi ilg‘or tajribani tatbiq etish choralari ko‘radi.

d) vazirlik hay‘at yig‘ilishlarini tayyorlash va o‘tkazishni tashkil qilish hamda hay‘at yig‘ilishlari qarorlarini tayyorlashda qatnashish sohasida;

vazirlik tizimidagi dolzarb masalalarning hay‘at yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilishini tashkil qilib, yig‘ilish materiallarini umumlashtiradi;

boshqarma xizmat faoliyati sohasidagi axborot-tahliliy materiallarni umumlashtirish, tayyorlash hamda vazirlik rahbariyati va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta‘minlaydi.